

ERKALASH MA'NOSINI IFODALOVCHI TIL BIRLIKLARINING TARJIMASIDA LINGVOMADANIY TAFOVUTLAR (SHEKSPIR ASARLARI ASOSIDA)

Xodjayeva Shoir Rustamovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti

universitetining mustaqil izlanuvchisi

hodjaeva.s.r@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22161286>

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda Vilyam Shekspir asarlari asosida erkalash birliklarining tarjimasida yuzaga keladigan lingvokulturologik tafovutlar tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi erkalash vositalarining madaniy-semantik xususiyatlarini aniqlash hamda ularning tarjimada qay darajada saqlanishini o'rganishdan iborat. Qiyosiy va lingvokulturologik tahlil metodlari asosida olib borilgan tadqiqot natijalari erkalash birliklari madaniy jihatdan shartlanganligini ko'rsatdi. Tarjima jarayonida ayrim obrazlar va konnotativ ma'nolar yo'qolishi yoki o'zgarishi aniqlangan bo'lsa-da, kompensatsiya va madaniy moslashtirish orqali ularning emotsional-ekspressiv ta'siri tiklanishi kuzatildi.

Kalit so'zlar: badiiy tarjima, erkalash birliklari, lingvokulturologik tafovutlar, Shekspir, madaniy moslashtirish, kompensatsiya, emotsional-ekspressiv ma'no.

Kirish. Badiiy tarjimada emotsional-ekspressiv birliklarni qayta yaratish murakkab jarayon bo'lib, ayniqsa erkalash ma'nosini ifodalovchi vositalar alohida e'tibor talab qiladi. Bunday birliklar nutqda yaqinlik, mehr va ijobiy baholashni ifodalash bilan birga, muayyan madaniy va lingvokulturologik xususiyatlarni ham aks ettiradi. Shu sababli ularni tarjima qilish faqat til birliklarini almashtirish emas, balki madaniy moslashtirish jarayonini ham o'z ichiga oladi. Shekspir asarlarida erkalash birliklari yuqori darajadagi obrazlilik va ekspressivlik bilan ajralib turadi.

Asosiy qism. Badiiy tarjimada erkalash birliklarini o'rganish masalasi ko'plab olimlar tomonidan yoritilgan. Jumladan, V.N.Komissarov tarjima adekvatligini asl matnning kommunikativ ta'sirini saqlash bilan bog'laydi [3: 112]. Yu.Nayda esa tarjimada o'quvchining reaksiyasini asosiy mezon sifatida belgilaydi [4: 159]. S.Bassnett tarjimada "yo'qotish va kompensatsiya" hodisasini tabiiy jarayon sifatida izohlaydi [2: 38]. Ushbu nazariy qarashlar erkalash birliklari tarjimasini tahlil qilishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. M.Beyker tarjimada madaniy jihatdan xos bo'lgan leksik birliklarning konnotativ va ekspressiv ma'nosini to'liq saqlash qiyinligini, shu sababli ayrim hollarda parafraz va boshqa strategiyalarga murojaat qilinishini ta'kidlaydi [1: 217]. P.Nyumark badiiy tarjimada ekspressiv birliklarni o'girishda semantik aniqlikdan ko'ra ularning kommunikativ va emotsional ta'sirini saqlash muhimroq ekanini qayd etadi [5: 103].

Tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi erkalash birliklari ko'pincha metaforik xarakterga ega bo'lib, ular diniy yoki estetik obrazlar orqali ifodalanadi. Masalan, "Hamlet" asarida Hamlet sevgilisi Ofeliyani "nymph" deb erkalaydi:

<i>W.Shakespeare</i> <i>"Hamlet"</i> <i>(Act 3, Scene 1)</i>	<i>HAMLET</i> <i>The fair Ophelia! Nymph, in thy orisons</i> <i>Be all my sins remembered.</i>
<i>M. Shayxzoda tarjimasi</i>	<i>HAMLET</i>

[109]	<i>Ofeliya! Quvonchim! Gunohlarimga Oz duongda kechirim tila, ey pari!</i>
<i>J. Kamol tarjimasi [282]</i>	<i>HAMLET Bas, kifoya! Ofeliya, ey go‘zal pari, Bir osiyman, duoyingda yod ayla meni.</i>

Ushbu erkalashni ifodalovchi leksema o‘zbek tiliga “pari” va “go‘zal pari” tarzida tarjima qilingan. Bu yerda “nymph” tushunchasiga xos mifologik konnotatsiya o‘zgaradi, biroq umumiy emotsional ta’sir saqlanadi. Bu lingvokulturologik moslashtirish natijasidir.

Yana bir misol sifatida “Romeo va Julietta” asaridagi “ladybird” erkalashni ifodalovchi leksemani ko‘rib chiqish mumkin:

<i>W.Shakespeare “Romeo & Juliet” (Act 1 Scene 3)</i>	<i>NURSE I bade her come. What, lamb! what, ladybird! God forbid! Where’s this girl? What, Juliet!</i>
<i>M. Shayxzoda tarjimasi [44]</i>	<i>ENAGA Uni boya, chaqirgandim: Qo‘zichoq! Qumrim! Qani, qizcha? Voy o‘lay e – qani Julietta?</i>
<i>J. Kamol tarjimasi [25]</i>	<i>ENAGA Men chaqirdim, qo‘zichog‘im, ovunchog‘im, kel! Voy, Xudoyim! Qayda bu qiz? Hoy, Julietta!</i>

U o‘zbek tiliga M.Shayxzoda tomonidan “qumrim” va J.Kamol tomonidan “ovunchog‘im” deb tarjima qilinadi. Bu holatda metaforik obraz yo‘qoladi, ammo kuchli affektiv birlik orqali kompensatsiya amalga oshiriladi. Bu esa tarjimada formal emas, balki funksional adekvatlik muhimligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, “Hamlet” asarida “rose of May” birikmasi “gulginam” va “chechagim” tarzida beriladi:

<i>W.Shakespeare “Hamlet” (Act 4, Scene 5)</i>	<i>LAERTES O rose of May, Dear maid, kind sister, sweet Ophelia!</i>
<i>M. Shayxzoda tarjimasi [175]</i>	<i>LAERT Mening gulginam! Ofeliyam, azizim, sevgili singlim.</i>
<i>J. Kamol tarjimasi [336]</i>	<i>LAERT Jigarbandim, Ofeliyam, singlim, chechagim!</i>

Bu yerda konkret obraz umumlashtiriladi, natijada obrazlilik qisman kamayadi, ammo umumiy erkalash ma‘nosi saqlanadi. Bu holat generalizatsiya orqali yuzaga kelgan lingvokulturologik tafovut sifatida baholanadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, erkalash birliklari tarjimasida lingvokulturologik tafovutlar muqarrar bo‘lib, ular asosan madaniy va semantik farqlar bilan bog‘liq. Shu bilan birga, tarjimonlar kompensatsiya va madaniy moslashtirish strategiyalari orqali ushbu tafovutlarni bartaraf etishga intiladi. Natijada, erkalash birliklarini tarjima qilishda asosiy e’tibor ularning shakliga emas, balki emotsional-ekspressiv ta’sirini saqlashga qaratiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: Routledge, 1992. – 304 p.
2. Bassnett S. Translation Studies. – London: Routledge, 2002. – 176 p.
3. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990. – 253 с.
4. Nida E. A. Toward a Science of Translating. – Leiden: Brill, 1964. – 331 p.
5. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – 292 p.
6. Shakespeare W. Romeo and Juliet / ed. by G. Blakemore Evans. – Cambridge: Cambridge University Press, 1984. – 288 p.
7. Shakespeare W. Hamlet. – London: Penguin Classics, 2005. – 342 p.
8. Шекспир В. Танланган асарлар: 5 жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. Ж. 1. – 488 б.
9. Шекспир В. Танланган асарлар: 5 жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. Ж. 3. – 640 б.
10. Шекспир В. Сайланма (Жамол Камол таржимаси). 3 жилдли. – Т.: ЎзР ФА “Фан” нашриёти, 2007. Ж. 1. – 615 б.
11. Шекспир В. Сайланма (Жамол Камол таржимаси). 3 жилдли. – Т.: ЎзР ФА “Фан” нашриёти, 2008. Ж. 2. – 653 б.